



**VIII INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE
"ABU ALI IBN SINO AND INNOVATIONS IN
MODERN PHARMACEUTICS"**

**April 24th, 2025,
Tashkent / Uzbekistan**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ ФАРМАЦЕВТИКА ИНСТИТУТИ

ИБН СИНО ЖАМОАТ ФОНДИ

**АБУ АЛИ ИБН СИНО ВА ЗАМОНАВИЙ ФАРМАЦЕВТИКАДА
ИННОВАЦИЯЛАР**

VIII ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ



**АБУ АЛИ ИБН СИНО И ИННОВАЦИИ
В СОВРЕМЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

VIII МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

Таҳрир хайъати

Раис: тиббиёт фанлари доктори К.С. Ризаев

Аъзолари:

Н.С. Нормахаматов - кимё фанлари доктори, катта илмий ходим;

Н.А. Махмудов - Ибн Сино жамоат фонди Бошқарув раиси;

М.Т. Муллажонова - фармацевтика фанлари номзоди, доцент

MAHALLIY O'SIMLIK XOMASHYOLARI ASOSIDA O'T HAYDOVCHI YIG'MANING FARMAKOLOGIK SKRININGI

Umarxonov X.V., Mullajonova M.T., Tulyaganov B.S.

Toshkent farmatsevtika instituti

Dolzarbligi. Bugungi kunda dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan dori preparatlarining 1/3 qismida dorivor o'simliklar asos sifatida qo'llanilmoqda. Tabiiy xomashyolardan olingan dori vositalari keng tarqalishi sabablari ularning iqtisodiy jixatdan samaradorligi, sintetik vositalarga nisbatan bezararligi, nojo'ya ta'sirlarni kam xollarda namoyon qilib inson organizmiga yumshoq ta'sir ko'rsatishidir. Ma'lumki, Respublikamizda o't yo'li va o't pufagi hamda jigar kasalliklari keng tarqalgan. Shuning uchun ham bu kasalliklarni davolash bugungi kunda tibbiyotni dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu kasalliklarning asosiy sabablari markaziy asab tizimining faoliyati buzilishi, ichki a'zolarining turli xastaliklari, ekologiyaning buzilishi, yuqumli kasalliklar, ovqatlanish me'yoringiz izdan chiqishi va organizmni ba'zi dori vositalari bilan zaxarlanishidir. Bugungi kunga kelib turli kasalliklarni, shu jumladan, jigar va o't yo'li kasalliklarini davolashda dorivor o'simliklardan tayyorlangan preparatlarga talab oshib bormoqda. Chunki, o'simlik xomashyosidan olingan va tayyorlangan dori vositalari sintetik preparatlarga nisbatan bezarar va yumshoq ta'sirga ega bo'lib, ular organizmni fiziologik jarayonlarini jadallashtiradi va ularni uzoq muddat qo'llash mumkin.

Ishning maqsadi. Mahalliy o'simlik xomashyolari asosida o't haydovchi yig'maning farmakologik skriningi.

Tajriba qismi. Tadqiqotlar joriy mintaqaviy GLP standarti – "Yaxshi laboratoriya amaliyoti" talablariga muvofiq, shuningdek, eksperimental va ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan umurtqali hayvonlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasining barcha qoidalarini va qoidalariga muvofiq amalga oshirildi. Buning uchun, tajriba uchun kamida 10-14 kun davomida karantindan o'tgan sog'lom oq zotsiz ikki hil jinsdagi laboratoriya sichqonlaridan foydalangan. Tajribani boshlashdan avval, 4-hil turdagi o'simlik xomashyolaridan iborat, har hil nisbatlarda olingan: tirnoqqul gullari, na'matak mevalari, dastarbosh gullari va dorivor moychechak gullaridan iborat fitokompozitsiyali yig'mani, an'anaviy usul yordamida, yani 1:10 nisbatida damlama tayyorlab olindi. O't haydovchi ta'sirini vazni 18-22 g bo'lgan oq zotsiz ikki hil jinsdagi laboratoriya sichqonlarida o'rganildi. Buning uchun laboratoriya sichqonlari 24 soat davomida och qoldirildi. O'rganilayotgan fitoyig'ma 3 xil bo'lganligi uchun, sichqonlarni 4ta guruhga: nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhidagi sichqonlarga bir marotaba og'iz orqali (per os) mahsus temir olivali zond yordamida, ekvivalent hajmdagi distillangan suv ichirildi. Damlamani tajriba hayvonlariga bir marotaba og'iz orqali (per os) mahsus temir olivali zond yordamida, 0,5 ml hajmda yuborildi. Tajribadan 60 daqiqa o'tgach yengil efir narkoz ostida sichqonlar jonsizlantirildi, bunda qorin bo'shlig'i kesilib, jigar ajratib olinadi va ipakli iplar bilan o't yo'llari bog'lab olinadi. Ehtiyotkorlik bilan ajratib olingan o't qopini analitik tarozida o'lchab olinadi. Shundan so'ng o'tni chiqarib, o't qopini distillangan suvda chayilib qog'oz filtr yordamida quritilib, so'ngra tarozida qayta o'lchanadi. Og'irlikni farqiga qarab, o't qopidagi safroni og'irligi nazorat va tajriba guruhlarida aniqlandi.

Fitoyig'ma 1,2,3 larning o't ajralishiga ta'sirini o'rganish natijalari ($M \pm m$; $n=6$)

Guruhlar	Ajralgan safro, mg
Nazorat	28,3 $\pm$ 1,2
Yig'ma 1	34,3 $\pm$ 1,6*
Yig'ma 2	37,7 $\pm$ 1,0**
Yig'ma 3	32,8 $\pm$ 1,3*

*Izoh: *- ishonchlilik darajasi $P < 0,05$, nazorat guruhiga nisbatan.*

Jadvaldagi natijalarga ko'ra, 1-yig'mani nazorat guruhiga nisbatan safro hajmi 21% ni, 2-yig'mani nazorat guruhiga nisbatan safro hajmi 33%ni va 3-yig'mani nazorat guruhiga nisbatan safro hajmini 15% ga oshirgan.

Xulosa. Olingan skrining natijalariga ko'ra 2-yig'maning farmakologik faollik darajasi yuqori bo'lganligi sababli, farmakologik izlanishlarni keyingi bosqichlarini, ushbu yig'ma bilan olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.